



Sesarka saqlash va etishtirish texnologiyasi

Ktaybekov A'jiniyaz Kadirbayevich Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Zootexnologiya va Veterinariya fakulteti Parrandachilik yo'nalishi magistranti

E-mail: ajiniyazktaybekov392@gmail.com

tel:998994507571

Annotatsiya: Sesarkalar-bular fazanlar oilasiga kirib, (*Numida mellagoris*) yovvoyi avlodi hisoblanadi. Xonaki sessarkalarning yovvoyi avlodi Evropa va Afrikada uchratish mumkin. Ularni ilk bor Rim imperiyasida uchratilib, so'ngra Evropa va Amerikaga olib borilgan. Xonaki sessarkalarni go'sht etishtirishda va ishlab chiqarishda qisman tuxum mahsuloti olishda foydalaniladi. Go'sht etishtirishda ko'proq oq rangli sesarkalardan foydalaniladi. Sesarkalar 1,7-1,8 kg tirik vaznga ega bo'lib, 80-120 dona tuxum beradi. Hozirgi kunda hududimizda maxsus iqtisoslashtirilgan sesarka go'shtini ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar yo'q, ammo ayrim xo'jaliklarda va xalq aholisi qo'lida urchitilmoqda.

Kalit so'zlar: sesarka, zot, inkubatsiya, namlik, issiqlik, harorat, ozuqa, omixta yem,

Yosh sesarka jo'jalarining oziqlanishi.

Sesarka jo'jalari ancha nimjon va asrash sharoitlariga talabchan bo'ladi. Shuning uchun xo'jalikda uyg'unlashtirilgan turda oziqlantirish qo'llanilsa, har safar oziqlantirish uchun yangi oziq tayyorlanishi kerak. Bundan tashqari bir marta qorib tayyorlangan yem ikkinchi marta berilishi mumkin emas. Chunki yem tarkibida achitqi bor. U qorilgan yemni tez achitadi. Natijada tana jismi uchun zararli kislotalar hosil bo'ladi. Bunday ozuqani istemol qilgan jo'jalarning ichi o'tadi, kasalliklarga chalinadi va nimjon bo'lib o'sishdan to'xtaydi. Ularga doimiy ravishda toza suv berilishi darkor.



O'sishi va rivojlanishi.

Sesarka jo'jalarini o'stirish texnologiyasi tovuq jo'jalarini boqishdan katta farq qilmaydi. Inkubatoridan chiqqan bir sutkalik sesarka jo'jalari uchun xona xarorati 29°C issiqlikda bo'lishi kerak, 10 kunlik bo'lganidan so'ng harorat asta sekinlik bilan pasaytirilib boriladi va 20-25 kunligida 22°C, 15 kunligidan to 40-45 kunlikgacha 20-18°C, 45 dan 60 kunlikgacha 16-14°C issiq bo'lishini ta'minlash lozim. Havoning namligi esa 60-70% atrofida saqlanishi kerak. Bir kunligidan boshlab 10 kun davomida har 2 soatda oziqlandirilib turiladi. Keyin oziqlantirish soni asta-sekin kamaytirib boriladi va jo'ja bir oylik bo'lganda bu ko'rsatkich 3 marta tushiriladi. Bir sutkaligidan 10 kunlikgacha har bir jo'jaga kuniga 1,5-2 gr pishirib po'stidan tozalangan va maydalangan tuxum massasi, 6-7 gr tariq, 6-10 gr jo'jalar uchun maxsus omixta yem, 1 gr gidroliz achitqisi, 2 gr maydalangan barra beda yoki 1 gr oqsil va vitaminli beda uni, 6 gr tabiiy sigir suti beriladi. Uch kunligidan boshlab aloxida idishlarga solib maydalangan chig'anoq, mayda shag'al qo'yilishi kerak. 10 dan 20 kunlikgacha 18 gr omixta yem, 10 gr tariq, 2 gr kepak, 1 gr gidroliz usuli bilan tayyorlangan achitqi, 5 gr sut, 6 gr yaxshi sifatli tvorog, 0,5 gr baliq moyi, 5 gr yanchilgan beda uni, 0,5 gr maydalangan chig'anoq beriladi. 21 dan 30 kunlikgacha 25 gr omixta yem, 12 gr tariq, 1 gr gidroliz achitqishi, 7 gr bug'doy kepagi, 10 gr sigir suti, 3 gr pishirib maydalangan baliq qiymasi yoki 2 gr baliq uni, 1 gr baliq moyi, 15 gr maydalangan xo'l beda beriladi. Jo'jalar bir oylik bo'lgandan so'ng oziq racionlari 31 kunlikdan 60 kunlikgacha, 61 dan 90, 91 dan 120, 121 dan 150, 151 dan 180 kunlikgacha qilib tuziladi.



Agar 150 kunlikdan boshlab katta yoshdagi sesarkalar guruhiga qo'shilsa u holda 51 kunligidan ularga katta yoshdagi tuxum qiladigan tovuqlarni boqish uchun tayyorlanadigan omixta yem bilan oziqlantirish mumkin.



Sesarka zotlari.

Oq ko'krakli zagorsk zoti: teri qoplami sariq rangda, tovarlik xususiyati yaxshi, go'sht chiqimi 1-kategoriyali. Tanasi uzun, boshi o'rtacha kattalikda, tumshug'i sariq rangda, bo'yni o'rtacha uzunlikda, ko'kragi keng, orqasi keng, oyoqlari sariq rangda, katta yoshli sesarkalarni tirik vazni 1850 g, erkaklarini tirik vazni 1920 g, tuxumdorligi 120 dona, og'irligi 46 g bo'ladi.

Oq rangli sibir zoti: Sibir qishloq xo'jalik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba markazida olimlari tomonidan patlanishi oq rangga ega bo'lgan zot guruhini yaratgan. Sesarkalarni tanasi keng, kil suyagi uzun, ko'krak qismida muskul to'qimalari yaxshi rivojlangan, pat va parlari qalin va terisi och sariq rangda. Erkaklarining tirik vazni 1760 g, urg'ochilari 1920 g, tuxum og'irligi 44g g bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida foydalanilishi.



Sesarka go'shti va tuxumi nihoyatda tansiq va parxez taom qatoriga kiradi. Sesarka tuxumining po'sti ancha qalin bo'lib, tovuqning tuxumiga nisbatan qattiq va kichik bo'ladi. Sesarka yiliga o'rtacha 90 tadan 140 tagacha tuxum qo'yadi. Bu parrandalar hovlida ya'ni uy sharoitida boqilsa uning katagi quyosh nuri tushmaydigan joyda doim salqin joyda boqish lozim. Sesarka 1 oylik jo'jasining vazni 200-250 gr ni tashkil etadi. Bu tur juda sekin o'sganligi sababli uni erkagini yoki urg'ochisini ajratish qiyin. Deyarli 6 oy yoki 7 oylarida ajratsa bo'ladi.

Xulosa.

Sesarkalar asosan parranda go'shti ishlab chiqarishda qishloq xo'jalikda foydalaniladi. Uning nom olishi Rassiya sar, ya'ni poshsho parrandasi, Rimda esa sezar sinfiga xos parranda deb yuritiladi. Ularning o'ziga xos foydali xususiyatlari bor. Ularning go'shti tarkibidagi aminakislotalar, suvda eriydigan vitaminlar va gavdasida yog` miqdorining kamligi bilan tovuqlardan farqlanadi. Tovuq tuxumiga nisbatan 3% quruq moddalar, 1,5-2 martagacha A vitamini va karotini ko'pdir. Uning kamchiligi o'sish va rivojlanishining sekin kechishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomxo'jayev S.S., Boboyev K.X., G'ulomov K. Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent, 1996 yil.
2. Maqsudov I, Joraev J.Y., Amirov SH.Q., Chorvachilik asoslari Toshkent, 2012 yil
3. Mirsaidov B. Parrandachilikda yangi texnologiyalar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali 2011 yil

Internet saytlari

1. www.Agro-Olam.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.ya-fermer.ru